

AVO

Maxfiylik siyosati

Maxfiylik siyosati

Hujjat nima haqida?	<p>"AVO bank" AJ maxfiylik siyosatida (keyinchalik matnda – "Siyosat") quyidagi ma'lumotlar aks ettirilgan:</p> <ul style="list-style-type: none">• biz (keyinchalik matnda – "biz", "bizni" va boshqalar "AVO bank" Ajga nisbatan qo'llaniladi) "AVO RBS" mobil ilovasi (keyinchalik matnda – "Ilova") va www.avo.uz sayti foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlaymiz;• biz foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining konfidensialligi va xavfsizligini ta'minlaymiz;• Saytdan foydalanganda ma'lumotlarni qayta ishlaymiz.
Shaxsiy ma'lumotlarni kim va qanday qayta ishlaydi?	<p>Shaxsiy ma'lumotlar bazasi operatori "AVO bank" AJ hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi, STIR: 207257279, ro'yxat raqami 16/1.</p> <p>Biz shaxsiy ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq qayta ishlaymiz.</p>
Biz bilan qanday bog'lanish mumkin?	<p>Elektron pochta orqali: info@avo.uz</p> <p>Telefon orqali: +998 (78) 888–7887</p> <p>Pochta orqali: 100212, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, A. Temur ko'chasi, 79a uy</p>
Shaxsiy ma'lumotlar subektining qanday huquqlari mavjud?	<p>Siz 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-sonli O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq huquqlarga egasiz va ularni bizga murojaat qilish orqali amalga oshirishingiz mumkin.</p>
Biz qanday shaxsiy ma'lumotlarni yig'amiz?	<p>Shaxsiy ma'lumotlarning to'liq ro'yxati, maqsadlari va ularni qayta ishlashning huquqiy asoslari bilan Siyosatning 1-sonli Ilovasida tanishishingiz mumkin.</p>
Biz shaxsiy ma'lumotlarni qanday yig'amiz?	<p>Biz shaxsiy ma'lumotlarni quyidagi usullar bilan yig'amiz:</p> <ul style="list-style-type: none">• <i>Siz orqali.</i> Siz Ilova shaklini to'ldirish yoki biz bilan pochta, telefon, elektron pochta yoki boshqa usul bilan bog'lanish orqali o'z ma'lumotlaringizni taqdim etishingiz mumkin.

-
- *Uchinchi shaxslar va ommaviy manbalar orqali.* Biz Siz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotlarni turli uchinchi shaxslar va ommaviy manbalardan olishimiz mumkin.

Kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni "Kredit ma'lumotlari tahliliy markazi" MCHJ va "CRIF" Kredit byurosi MCHJ kredit byurolaridan olamiz.

Agar siz shaxsiy ma'lumotlaringizni taqdim etmasangiz

Agar qonunga yoki Siz bilan tuzgan shartnomaga muvofiq bizga Sizing shaxsiy ma'lumotlaringiz zarur bo'lsa, ularni taqdim qilishdan bosh tortgan taqdiringizda shartnomani tuzish va/yoki uni lozim darajada bajara olmasligimiz mumkin. Bunday taqdirda biz Sizga shartnomani bekor qilish to'g'risida xabar beramiz.

Marketing tadbirlarida ishtirok etishdan bosh tortish

Siz bizga xabar yuborish orqali istalgan paytda marketing xabarlarini jo'natishini to'xtatishni talab qilishingiz mumkin.

Agar zaruriy ma'lumotlarni qayta ishlashga qonuniy manfaatimiz mavjud bo'lsa, marketing xabarlaridan bosh tortish shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga ta'sir qilmaydi.

**Shaxsiy
ma'lumotlarni
kimga uzatamiz?***"AVO" kompaniyalar guruhi doirasida*

Biz Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizni o'z xodimlarimiz va bizning affillangan shaxsimiz "AVO SERVICES AND TECHNOLOGY" MCHJga (O'zbekiston Respublikasi, STIR: 309440142) uzatimiz mumkin.

Uchinchi shaxslarga

Biz Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizni quyidagi uchinchi shaxslarga ochishimiz mumkin:

- ma'lumotlar bazasi yetkazib beruvchilariga;
- banklarga;
- axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlar yetkazib beruvchilariga;
- sug'urta tashkilotlariga;
- professional konsultantlarga, konsultativ, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmatlarni taqdim etuvchi yuristlar, auditorlar va boshqalarga ham;
- professional xizmatlar, shuningdek biznes-jarayonlar outsorsingini taqdim etuvchi kompaniyalarga;
- qonunchilik talablariga muvofiq Bank ma'lumot taqdim qilishi shart bo'lgan davlat boshqaruv tashkilotlariga;
- kuryer xizmatlariga;
- chat-botlarga;
- tahlil xizmatlariga;
- notarial tashkilotlariga.

Biz barcha uchinchi shaxslar shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashini talab qilamiz. Uchinchi shaxslar Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizni mazkur maxfiylik siyosatida ko'rsatilgan maqsadlar bilan bog'liq bo'lmagan o'z maqsadlarida foydalanishga haqli emaslar.

Uchinchi shaxslar ro'yxati shu manzilda ko'rsatilgan http://docs.avo.uz/AVO_bank_partners_uz

**Ma'lumotlar
saqlanishi**

Biz Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizni, ularni yig'gan maqsadlarimizga erishish uchun zarur bo'lgan davr mobaynida qayta ishlaymiz, shuningdek qonunchilik talablariga rioya qilish va ularni amalga oshirish maqsadlari uchun ham qayta ishlaymiz.



“AVO bank” AJ
STIR 207257279 • Ro'yxat raqami 16/1

Ba'zi holatlarda biz Sizing shaxsiy ma'lumotlaringizni tadqiqot yoki statistika maqsadlarida egasizlantirishi mumkin. Bu holatda biz ushbu ma'lumotlardan cheklanmagan vaqt davomida qo'shimcha ogohlantirishsiz foydalanishimiz mumkin.

Saytdan foydalanish paytida ma'lumotlarni qayta ishlash

Saytning ishchi holatini yaxshilash va ta'minlash maqsadida, shuningdek bizning mahsulotlarimiz va xizmatlarimizni mukammallashtirish, mahsulotlarimiz va xizmatlarimiz bo'yicha maqsadli ma'lumotlarni taqdim etish uchun Sizing afzalliklaringizni aniqlash maqsadida Cookiesdan foydalanamiz.

Cookies nima?

Cookies — bu veb-sayt Sizing kompyuteringiz, planshet, mobil uskuna yoki Siz veb-saytga tashrif buyurganingizda foydalanadigan boshqa uskunangizda foydalanilayotgan brauzerda so'raydigan ma'lumotlardir. Cookies Sizing veb-saytdagi harakatlaringiz to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, shuningdek Sizing uskunangiz, sessiya vaqti va sanasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Cookies Sizing kompyuteringiz, planshet, mobil uskuna va boshqa qurilmalaringizda saqlanadi. Istalgan paytda brauzer sozlamalarida saqlangan Cookiesni o'chirishingiz mumkin.

Biz qanday Cookiesdan foydalanamiz?

Biz quyidagi Cookiesdan foydalanamiz:

Session

Siz veb-sayt sahifasida bo'lgan vaqtingizda faqat vaqtinchalik xotirada mavjud bo'ladi. Brauzerlar odatda ularni Siz veb-sayt oynasini yopganingizda o'chiradilar. Session Cookies veb-saytga ma'lumotni qayta kiritmaslik uchun saytning oldingi sahifasida tanlanganlaringiz haqidagi ma'lumotlarni eslab qolish imkonini beradi.

Biz bu ma'lumotlarni Siz brauzerdan chiqmashingizdan oldin ishlatamiz.

Doimiy

Sizing kompyuteringizda saqlanadigan va brauzer yopilishi bilan o'chirilmaydigan Cookies. Ular foydalanuvchining ma'lum bir veb-sayt uchun afzalliklarini saqlab qolishi mumkin, bu esa ushbu afzalliklardan kelajakdagi ko'rish seanslarida foydalanishga imkon beradi.

Bunday Cookies sizni veb-saytning noyob foydalanuvchisi sifatida aniqlash imkonini beradi va veb-saytga qaytganingizda, ular Siz haqingizdagi ma'lumotlarni va ilgari qilgan harakatlaringizni eslab qolishga yordam beradi.

Analitik/marketing

Siz Veb-saytdan qanday foydalanishingiz haqidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi. Masalan, qanday sahifalarga tashrif buyurasiz, qanday havolalar orqali o'tasiz. Bunday Cookiesning asosiy maqsadi – veb-saytning funktsionalligi va ishini yaxshilash. Foydalanuvchilik tajribangizni yaxshilash uchun Sizga yaqin bo'lgan takliflarni ko'rsatish imkonini beradi.

Biz bu ma'lumotlardan mahsulotlarimiz va xizmatlarimizni yaxshilash uchun foydalanamiz.

Majburiy

Veb-sayt to'g'ri ishlashi uchun zarur bo'lgan minimal Cookies to'plami.

**Cookiesga
ishlov berish
usullari**

Biz olingan ma'lumotlarga, shu jumladan Yandex.Metrica, AppsFlyer, Facebook va Google pixel kabi metrik dasturlar va tahliliy tizimlardan foydalangan holda ishlov beramiz.

**Cookies
fayllarini
boshqarish**

Cookiesga ishlov berish haqida bildirishnoma oynasidagi «Qabul qilish» tugmasini bosish orqali Siz Cookiesga ishlov berishga rozilik bildirasiz.

Veb-saytimizda Cookiesdan foydalanishdan voz kechish

Siz brauzer sozlamalari orqali Cookiesga ishlov berishdan voz kechishingiz mumkin. Bunday holda, bizning saytimiz faqat majburiy Cookieslarga ishlov beradi.

Sizning qurilmangizda Cookies fayllarini o'chirish

Brauzer tarixini tozalash orqali qurilmangizda mavjud bo'lgan barcha Cookiesni o'chirishingiz mumkin.

Cookies fayllarini bloklash

Brauzeringizni qurilmangizga Cookies joylashtirilmasligi uchun sozlashingiz mumkin, lekin agar shunday qilsangiz, veb-saytlarga har safar tashrif buyurganingizda ba'zi sozlamalarni qo'lda sozlashingiz kerak bo'lishi mumkin. Ba'zi xizmatlar va funksiyalar umuman to'g'ri ishlamasligi mumkin (masalan, shaxsiy kabinetigizga kirish).

Siyosatga o'zgarishlar

Mazkur versiya oxirgi marta 2024 yil 1 fevralda yangilangan, oldingi versiyalarni biz bilan bog'lanib olishingiz mumkin.

O'zgarishlar to'g'risida bizni xabarlantirish majburiyatingiz

Siz to'g'ringizda saqlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar aniq va dolzarb bo'lishi juda muhim.

Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz o'zgargan taqdirda bizga xabar berishingizni iltimos qilamiz.

Maxfiylik siyosatiga 1-sonli Ilova

Maqsad	Ma'lumotlar ro'yxati	Qayta ishlash uchun asos
Ilovada ro'yxatdan o'tish va cheklangan xizmatlar ro'yxatiga kirish uchun	<ul style="list-style-type: none"> • Login • Telefon raqami 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi
Autentifikatsiya va mobil ilovaga keyingi kirish	<ul style="list-style-type: none"> • Login • Parol • Bir martalik tekshiruv kodi • PIN-kod Biometrik ma'lumotlar: <ul style="list-style-type: none"> • yuz tasviri 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi
Sizni mijoz sifatida ro'yxatdan o'tkazish va bank kartasini rasmiylashtirish	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Jins • Yuz tasviri • Tug'ilgan sana • Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari • JSHSIR • Yashash manzili haqidagi ma'lumotlar 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (siz bilan shartnomaning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun)
Sizni mijoz sifatida raqamli identifikatsiya qilish uchun	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi

	<ul style="list-style-type: none"> • Hujjatning Foydalanuvchi shaxsini tasdiqlovchi qismlarining rasmi • Yashash manzili haqidagi ma'lumotlar • Biometrik ma'lumotlar: • Yuz tasviri • Yuzning videotasviri 	<p>Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (siz bilan shartnomaning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun)</p> <p>Yuridik majburiyatni bajarish uchun zarur</p>
Kredit karta bo'yicha kredit limitini hisoblash	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Telefon raqami • Kredit hisoboti • Telefon raqami • Geopozitsiya 	<p>Siz bilan shartnomaning bajarilishi</p> <p>Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (kredirga layoqatlilikni aniqlash)</p>
Ilovaga boshqa bank kartasini ulash	<ul style="list-style-type: none"> • Bank kartasi raqami • Bank kartasi amal qilish muddati • Bank kartasi rasmi • Bir martalik tekshiruv kodi 	<p>Siz bilan shartnomaning bajarilishi</p> <p>Yuridik majburiyatni bajarish uchun zarur</p>
Siz bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha qarzdorlikni talab qilish (so'ndirish, undirish)	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari • Yashash manzili haqidagi ma'lumotlar • Aloqa ma'lumotlari 	<p>Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (bizga tegishli bo'lgan qarzlarni undirish uchun)</p>

<p>Yaqin orada mavjud bo'lgan kartomat/bankomatlar haqida ma'umot berish</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Geopozitsiya 	<p>Siz bilan shartnomaning bajarilishi</p> <p>Yuridik majburiyatni bajarish uchun zarur</p>
<p>Plastik karta yetkazib berish</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Yetkazib berish uchun manzil • Telefon raqami 	<p>Siz bilan shartnomaning bajarilishi</p>
<p>Bizning biznes va ilovani boshqarish va himoya qilish (muammolarni bartaraf qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish, sinovdan o'tkazish, tizimga xizmat ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash, hisobot berish va ma'lumotlar yuklash)</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Ilovadagi harakatlar to'g'risida ma'lumot • Familiya, ism, sharif • Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari • Yashash manzili haqidagi ma'lumotlar 	<p>Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (bizning biznes yuritishimiz, administativ va AT-xizmatlar ko'rsatish, tarmoq xavfsizligi, firibgarlikning oldini olish, biznesni qayta tashkillashtirish yoki guruhni qayta qurish uchun)</p> <p>Yuridik majburiyatni bajarish uchun zarur</p>
<p>Bizning ilovamiz, mahsulotlar/xizmatlar, marketing, mijozlar bilan munosabatlar va tajribani yaxshilash uchun ma'lumotlar tahlili</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Ilovadagi harakatlar to'g'risida ma'lumot • Sizing qurilmangiz haqida texnik ma'lumot • Texnik identifikatorlar • Metama'lumotlar 	<p>Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (bizning mahsulotlar va xizmatlarimiz uchun mijozlar turini aniqlash, bizning ilovamizni aktual holatda saqlash, bizning biznesimiz rivoji va marketing strategiyamiz haqida ma'lumot berish uchun)</p>

Sizning so'rovlaringiz yoki xatlaringizga javoblar	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Elektron pochta manzili • Qog'oz hujjatni olish uchun manzil • Telefon raqami • Telegram akkaunti • Telefondagi suhbatning yozib olinishi 	Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (sizning so'rovlaringiz yoki xatlaringizga javob berish uchun)
Marketing xabarlarini jo'natish uchun	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Elektron pochta manzili • Telefon raqami 	Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (marketing tadbirlarini o'tkazish uchun)
Sodiqlik dasturida sizning ishtirokingiz uchun	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Telefon raqami 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi
Kartadan kartaga o'tkazish	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi
Obunalarni rasmiylashtirish	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • JSISHIR • Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi Yuridik majburiyatni bajarish uchun zarur
Sizga Bank mahsulotlari va xizmatlarini ko'rsatish	<ul style="list-style-type: none"> • Familiya, ism, sharif • Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari 	Siz bilan shartnomaning bajarilishi Bizning qonuniy manfaatlarimiz uchun zarur (siz bilan shartnomalar bo'yicha qarzlarni undirish uchun)



		Yuridik majburiyatni bajarish uchun zarur
Profilni sozlash	<ul style="list-style-type: none">• Elektron pochta manzili• Yuz tasviri	Siz bilan shartnomaning bajarilishi